O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI OQDARYO TUMAN HOKIMINING QARORI

2024 - yil 7 - fevral 38-7-92-Q/24 Oqdaryo tumani hokimligi

Tuman hududidagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarini 2024-yilda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tuman hududidagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha "Komissiya"ning tarkibi 1-ilovaga, majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni

8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari - bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - bir yilda bir marta;

tirkamalar ko‘rikka transport vositasi - shatakchi uchun belgilangan muddatlarda.

4. Nizomning 5-bandi “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marotaba 1-martdan 30-iyungacha;

ikkinchi marotaba 1-sentabrdan 31-oktabrgacha;

jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining texnik ko‘rigi 1-yanvardan 31-dekabrgacha o‘tkazilsin.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi rahbariga:

transport vositalarining texnik holati, ulardan foydalanish normalari va qoidalariga rioya etilishi ustidan samarali nazoratni tashkil etish;

transport vositalarining texnik holati va uskunalari yo‘l harakati xavfsizligi standartlari, qoidalari, normalariga muvofiqligini baholash yuklatilsin.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qaroriga asosan “Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligi”ni baholash uchun Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati organi tomonidan tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat’iy nazar, vazirliklar va

idoralarning, boshqa tashkilotlarning, shuningdek, “akkreditatsiya markazi” xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyasi shartnoma asosida hal etilishi mumkin. Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalari Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qaroriga asosan texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalariga muvofiqligi tadbirkorlik subyektlari - yuridik shaxslar tomonidan baholanishi mumkin.

6. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga transport vositalarini texnik pasporti bilan birgalikda texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi, ularning texnik jihatdan sozligini va o‘z vaqtida reja jadval asosida ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining 3-bandiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligining ichki va soqchilik qo‘shinlari, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy bo‘linmalari transport vositalari ko‘rsatib o‘tilgan idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

8. Transport vositalari texnik ko‘rikdan o‘tkazilganligi uchun Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-son qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomiga muvofiq yig‘im undirilsin.

9. Oqdaryo tumani hokimining 2022-yil 19-dekabrdagi 275-7-92-Q/22-sonli qarori 2024-yil 1-yanvardan boshlab o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari U.Islamov zimmasiga yuklatilsin.

11. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kirsin.

Oqdaryo tumani hokimi **Qudratov Sh.**

Oqdaryo tuman hokimining
2024-yil 7-fevraldagi
38-7-92-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududida avtotransport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish komissiyasining

T A R K I B I

1. A.Safarov	- tuman Ichki ishlar bo‘limi Davlat yo‘l harakati xavfsizligi guruhi katta inspektori, komissiya raisi.
2. F.Zairov	tuman Mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i
3. O.Tirkashov	Mudofaaga ko‘maklashuvchi «Vatanparvar» tashkil

		oti tuman Kengashi a’zosi.
4. I.To‘rakulov	tuman Mudofaa ishlari bo‘limi mutaxassisi.	

Oqdaryo tuman hokimining
2024-yil 7-fevraldagi
38-7-92-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Tumandagi mashina-traktor parklari-muqobil mashina-traktor parklari korxonalari, tashkilot va muassasalari hisobidagi avtomototransport vositalarini 2024-yil majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish

J A D V A L I

T/r	Tashkilotlar nomi	Tr-t vositasi soni	O‘tkaziladigan kuni	O‘tkazish joyi
1.	Tuman hokimligi	7	01.03.2024 y	Avtoshahobcha
2.	Tuman hokimligi moliya bo‘limi	1	02.03.2024 y	Avtoshahobcha
3.	Tuman DSI	1	03.03.2024 y	Avtoshahobcha
4.	Oqdaryo arxitektura bo‘limi	1	04.03.2024 y	Avtoshahobcha
5.	Tuman DSEO va JSM	5	05.03.2024 y	Avtoshahobcha
6.	Samarqand paxta tajriba xo‘jaligi	1	09.03.2024 y	Avtoshahobcha
7.	Oq-Qoradaryo irrigatsiya tizimi	6	11.03.2024 y	Avtoshahobcha
8.	Tuman MKT Vatanparvar tashkiloti	9	12.03.2024 y	Avtoshahobcha
9.	Raximov Xaydar savdo	1	13.03.2024 y	Avtoshahobcha
10.	391-sonli mehan. kuchma karvon.	12	15.03.2024 y	Avtoshahobcha
11.	Okdaryo TYXPTFK	17	16.03.2024 y	Avtoshahobcha
12.	Samarkand MChJ	8	17.03.2024 y.	Avtoshahobcha
13.	Butan Avtoservich MChJ	1	18.03.2024 y	Avtoshahobcha
14.	Uzagrosug‘urta tuman bo‘limi	1	19.03.2024 y	Avtoshahobcha
15.	Biometod xususiy korxonasi	3	20.03.2024 y	Avtoshahobcha
16.	Registon kukinur servis x/korxonasi	1	22.03.2024 y	Avtoshahobcha
17.	OOO Nuroniy Binokor servis	5	23.03.2024 y	Avtoshahobcha
18.	Tuman qishloq xo‘jalik kimyo	4	24.03.2024 y	Avtoshahobcha
19.	Bek Labirint x/korxonasi	1	25.03.2024 y	Avtoshahobcha
20.	Umidjon Elita MChJ	3	26.03.2024 y	Avtoshahobcha
21.	63-sonli maxsus internat maktabi	2	27.03.2024 y	Avtoshahobcha
22.	Oqdaryo IChTK	1	29.03.2024 y	Avtoshahobcha
23.	Chayjavul fermer xo‘jaligi	1	30.03.2024 y	Avtoshahobcha
24.	Tuman mahalla jamg‘armasi	1	31.03.2024 y	Avtoshahobcha
25.	Tuman Nuroniy jamg‘armasi	1	01.04.2024 y	Avtoshahobcha
26.	AT Paxta bank Loish bo‘limi	1	02.04.2024 y	Avtoshahobcha
27.	Tuman qishloq va suv xo‘jaligi b‘limi	2	03.04.2024 y	Avtoshahobcha
28.	OST-FUD x/k MChJ	8	05.04.2024 y	Avtoshahobcha
29.	XMZ-Oqdaryo IChK	1	06.04.2024 y	Avtoshahobcha
30.	Turon AK kichik korxonasi	15	07.04.2024 y	Avtoshahobcha
31.	Oqdaryo Bunyodkor kuruvchi servis	12	08.04.2024 y	Avtoshahobcha
32.	Raqobat x/ korxonasi	9	09.04.2024 y	Avtoshahobcha
33.	Oqdaryo dav suv mahsus pudrati DUK	1	10.04.2024 y	Avtoshahobcha
34.	Abdumannonnux.Oqdaryox/korxonasi	11	12.04.2024 y	Avtoshahobcha

35.	Dimati-fayz x/korxonasi	1	13.04.2024 y	Avtoshaxobcha
36.	Nayman o‘quv sport texnika klubi	7	14.04.2024 y	Avtoshahobcha
37.	Tuman urmon xo‘jaligi	3	15.04.2024 y	Avtoshahobcha
38.	Biopres servis MChJ	4	16.04.2024 y	Avtoshahobcha
39.	Xalk ta’limi bo‘limii	2	17.04.2024 y	Avtoshahobcha
40.	Samandar x/korxonasi	3	19.04.2024 y	Avtoshahobcha
41.	OOO DILNATALI TRANS	23	20.04.2024 y	Avtoshahobcha
42.	Nur-Oazis Ak x/korxonasi	1	21.04.2024 y	Avtoshahobcha
43.	Max. TChISK MChJ	1	22.04.2024 y	Avtoshahobcha
44.	Odil bunyod servis MChJ	6	24.04.2024 y	Avtoshahobcha
45.	Sayoxat trans MChJ	26	26.04.2024 y	Avtoshahobcha
46.	Kelajak f/x	1	27.04.2024 y	Avtoshahobcha
47.	Me’mor-Alisher-Kumushkent f/x	4	28.04.2024 y	Avtoshahobcha
48.	MAX TRUSK MChJ	2	29.04.2024 y	Avtoshahobcha
49.	Kobil kuruvchi servich MChJ	2	30.04.2024 y	Avtoshahobcha
50.	OSIYO YOL SERVIS	9	01.05.2024 y	Avtoshahobcha
51.	Loyish AT savdo korxonasi	2	03.05.2024 y	Avtoshahobcha
52.	Amirxon trans	3	04.05.2024 y	Avtoshahobcha
53.	Tuman Matlubotsavdo AJ	1	05.05.2024 y	Avtoshahobcha
54.	Tuman elektr tarmoqlari korxonasi	1	06.05.2024 y	Avtoshahobcha
55.	Oqdaryo-Elita-Tortuvli f/xo‘jaligi	3	07.05.2024 y	Avtoshahobcha
56.	Bekzod f\ xo‘jaligi	1	08.05.2024 y	Avtoshahobcha
57.	Gujumsoy Oqdaryo fermer xo‘jaligi	2	10.05.2024 y	Avtoshahobcha
58.	Ibrux-Loish MChJ	4	11.05.2024 y	Avtoshahobcha
59.	Yunusxon Azamatov f/x	1	12.05.2024 y	Avtoshahobcha
60.	Quruvchi x/f	8	13.05.2024 y	Avtoshahobcha
61.	«Ustoz » sixatgohi	2	14.05.2024 y	Avtoshahobcha
62.	Sayoxat darxon trans	26	15.05.2024 y	Avtoshahobcha
63.	Oqdaryo tuman toza hudud DUK	10	17.05.2024 y	Avtoshahobcha
64.	Jasur Bunyodkor servis MChJ	1	18.05.2024 y	Avtoshahobcha
65.	Bobir-Baxtiyor sabzavotlari f/x	1	19.05.2024 y	Avtoshahobcha
66.	Farovon grand invest f/x	2	20.05.2024 y	Avtoshahobcha
67.	Oqdaryo-Yangiobod f/x	1	21.05.2024 y	Avtoshahobcha
68.	Ulug‘bek-G‘ayratbek savdo servis MChJ	2	22.05.2024 y	Avtoshahobcha
69.	TD Textil MChJ	3	24.05.2024 y	Avtoshahobcha
70.	Abdusaid Kosimov f/x	1	25.05.2024 y	Avtoshahobcha
71.	Loyish-O‘tkir qurilish x/k	1	26.05.2024 y	Avtoshahobcha
72.	G‘ofur ota f/x	1	27.05.2024 y	Avtoshahobcha
73.	Rotyuud-ol-farm MChJ	1	28.05.2024 y	Avtoshahobcha
74.	Shoxyusufxon trans qurilish MChJ	3	29.05.2024 y	Avtoshahobcha
75.	Azimja-Universal mobil MChJ	1	31.05.2024 y	Avtoshahobcha
76.	Oqdaryo hosildor yerlari f/x	1	01.06.2024 y	Avtoshaxhbcha
77.	Al disel servis MChJ	1	02.06.2024 y	Avtoshahobcha
78.	Dahbed MChJ	1	03.06.2024 y	Avtoshahobcha
79.	Mester Brava MChJ	1	04.06.2024 y	Avtoshahobcha
80.	Karman Logistik MChJ	27	05.06.2024 y	Avtoshahobcha

81.	Oqdaryo Agrosanoat va servis kasb-hunar maktabi	1	07.06.2024 y	Avtoshahobcha
82.	Oqdaryo ovozi gazetasi d/k	1	08.06.2024 y	Avtoshahobcha
83.	Teng hamkorlik x/f	1	09.06.2024 y	Avtoshahobcha
84.	Zarafshon lomon parrandasi MChJ	3	10.06.2024 y	Avtoshahobcha
85.	O‘tkir sarbon servis MChJ	2	11.06.2024 y	Avtoshahobcha
86.	Oqdaryo Feruzasi f/k	1	12.06.2024 y	Avtoshahobcha
87.	Go‘shtsutsavdo xarid x/k	1	14.06.2024 y	Avtoshahobcha
88.	Oqdaryo quruvchi Bunyodkor –Turkiston MChJ	4	15.06.2024 y	Avtoshahobcha
89.	Aminov Isroil x/k	1	16.06.2024 y	Avtoshahobcha
90.	Oqdaryo shirin non k/k	1	17.06.2024 y	Avtoshahobcha
91.	Oqdaryo tuman irrigattsiya bo‘limi	1	18.06.2024 y	Avtoshahobcha
92.	Xamza yozuvchi MChJ	2	19.06.2024 y	Avtoshahobcha
93.	Oqdaryo quruvchi savdo MChJ	2	21.06.2024 y	Avtoshahobcha
94.	Oqdaryo memor Dilshodbek MChJ	1	22.06.2024 y	Avtoshahobcha
95.	Texnik taraqqiyot servis	1	23.06.2024 y	Avtoshahobcha
96.	Xan Gold x/k	1	24.06.2024 y	Avtoshahobcha
97.	Oqdaryo avtomaktab	6	25.06.2024 y	Avtoshahobcha
98.	Do‘stbek Oqdaryo x/k	3	26.06.2024 y	Avtoshahobcha
99.	Sherjaxon savdo x/k	1	27.06.2024 y	Avtoshahobcha
100.	Obod metal	2	28.06.2024 y	Avtoshahobcha
101.	Bandlikka ko‘maklashish markazi	1	29.06.2024 y	Avtoshahobcha